



Ahad RAYMBERDIYEV<sup>a</sup>

<sup>a</sup>Doctoral Student

International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

A.Qodiriy Str. 11, Tashkent, 100011, Uzbekistan

E-mail: [raymberdiyevahad9696@mail.com](mailto:raymberdiyevahad9696@mail.com)

## IMOM TERMIZIYNING «SUNAN» ASARI TAFSIR BOBI VA UNDAGI FIQHGA OID HADISLAR TAHLILI

**Annotatsiya.** Hadislar islom dinining asosiy manbalaridan biri bo'lib, Qur'oni Karim oyatlarini tafsir qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hadislarni o'rganish doirasida yaratilgan yirik to'plamlar orasida Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning «Sunan» asari nafaqat hadislarning matni va sanadiga oid tafsilotlarni, balki tafsir ilmiga oid ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgani bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, asarning tafsir bobida Qur'oni Karim oyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan hadislar alohida ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, unda oyatlarning nozil bo'lish sabablari, majoziy ifodalari, fiqhiy talqinlari va sahobiyarning rivoyatlarni tushunish metodlari aniq ko'rsatib beriladi. Imom Termiziyning ilmiy uslubi hadisni nafaqat rivoyat qilish, balki u orqali fiqh va tafsirga oid masalalarni muhokama qilishda ham metodik yondashuvni ko'rsatadi. Mazkur ilmiy tahlillar orqali hadis va tafsir ilmlarining o'zaro uyg'unligi, oyatlar tafsirisiga oid hadislarning manbashunoslikdagi o'rni, Qur'onni sunnat orqali sharhlashning metodologik asoslari aniqlanadi. Shuningdek, maqolada Imom Termiziyning «Sunan» asari tafsirga oid hadislarni tizimli shaklda taqdim etgan yirik manba sifatida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Imom Termiziy, Sunan, tafsiriy hadis, Qur'on talqini, sunnat, Fotiha surasi, qibla, ro'za, ijthod, fiqhiy tafsir, sababi nuzul, hadisshunoslik, manbashunoslik.

## AN ANALYSIS OF THE TAFSIR CHAPTER IN IMAM AL-TIRMIDHI'S SUNAN AND THE JURISPRUDENTIAL HADITHS CONTAINED THEREIN

**Abstract.** The science of hadith is considered one of the fundamental branches of Islamic source studies and serves as a vital tool in the accurate interpretation of Qur'anic verses and the enrichment of exegetical methodology. Among the major hadith compilations formed within this discipline, the Sunan of Imam Abu 'Isa Muhammad ibn 'Isa al-Tirmidhi stands out for containing not only narrations with detailed texts and chains of transmission but also valuable reflections related to Qur'anic exegesis. In particular, the Tafsir chapter of the collection holds significant scholarly value, as it presents hadiths directly related to specific Qur'anic verses. These hadiths elucidate the reasons for revelation (asbāb al-nuzūl), figurative expressions, legal interpretations, and the ways in which the Companions understood and contextualized the verses. Al-Tirmidhi's scholarly approach demonstrates a methodological framework that goes beyond narration, extending into the discussion of jurisprudential and exegetical matters. Through such analysis, the intrinsic relationship between hadith and tafsir sciences is revealed, and the methodological foundations of interpreting the Qur'an through the Sunnah are identified. Within this context, Sunan al-Tirmidhi emerges as a comprehensive and systematized source that presents tafsir-related hadiths with critical evaluation and commentary.

**Keywords:** Imam Tirmidhi, Sunan, exegetical hadiths, Qur'anic interpretation, Sunnah, Surah al-Fatiha, qibla, fasting, ijthād, legal exegesis, asbāb al-nuzūl, hadith studies, source criticism.

## KIRISH

Islom ilmlari orasida hadis ilmi alohida o'ringa ega bo'lib, u Qur'oni Karim oyatlarining nozil bo'lish sabablari, tafsiri va ularning hayotdagi amaliy tatbiqini o'rganishga xizmat qiluvchi muhim manba hisoblanadi. Rasululloh (s.a.v.)ning so'zlari, amallari, taqirlari va xulqlari oyatlarning mazmun-ma'nosini to'g'ri tushunish, ularni tahlil qilish, hayotga tatbiq etishda musulmonlar uchun asosiy yo'l-yo'riq hisoblanadi. Hadislar nafaqat mustaqil manba, balki Qur'on tafsirida muhim sharhlovchi vosita sifatida ham doimo alohida qiziqish bilan o'rganilgan (Mirzo Kenjabek. 2010:12).

Hadis ilmi rivojida muhim o'rin tutgan muhaddislar orasida Imom Termiziy alohida mavqega ega bo'lib, uning «Sunan» asari tafsir ilmi rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy 824-yilda Termiz shahrida tug'ilgan (Anvarshoh Kashmiriy., 2004:22). U hadis ilmi bo'yicha keng tadqiqotlar olib borgan va ko'plab muhaddislar bilan ilmiy muloqotlar qilgan. Uning «Sunan» asari oltita ishonchli hadis to'plamlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Unda hadislarning isnod, matn va sharhlari alohida uslubda bayon qilingan.

## ASOSIY QISM

Imom Termiziy hadis, fiqh, aqida va tafsir ilmlaridagi sarmahsul faoliyati bilan keng tanilgan. U hadis ilmini Imom Buxoriy va Imom Muslim kabi mashhur muhaddislardan o'rgangan. U o'zining mashhur «Sunani Termiziy» asarida hadislarni jamlash bilan birga, ularni tahlil qilish va izohlashga ham katta e'tibor qaratgan.

Imom Termiziy «Sunan» asarining tafsiriga oid bobida Qur'oni karim oyatlari sharhlangan hadislarni keltirilgan. Ushbu bob 95 ta kichik fasldan iborat bo'lib, har bir faslda ma'lum bir suraning ba'zi oyatlari tafsiri bayon qilingan. Tafsir bobida 488 ta hadis o'rin olgan (Shamsiddin Muhammad Zahabiy., 1998:433).

«Sunan» asari tafsiriy yondashuv rivojida ham muhim manba hisoblanadi. Chunonchi, unda hadislarning oyatlardan ko'zlangan maqsadni ochib berishdagi o'rni ochib berilgan. Asarda kelgan fiqhga oid hadislar fiqhiy oyatlarning sharhi hisoblanadi. Masalan, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)dan rivoyat qilingan bir hadis asosida namozda Fotiha surasini o'qimaslikning oqibatlarini yoritiladi. Hadisda Fotiha surasining har bir rakatda o'qilishi lozimligi aniq bayon qilingan. (Anvarshoh Kashmiriy., 2004:433). Bu masala

fiqhiy bahs-munozaralarga ham sabab bo'lgan va turli mazhab ulamolari tomonidan turlicha talqin qilingan.

أخبرنا بذلك محمد بن يحيى ويعقوب بن سفيان الفارسي قال حدثنا إسماعيل بن أبي أويس عن أبيه عن العلاء بن عبد الرحمن حدثني أبي وأبو السائب مولى هشام بن زهرة وكانا جليسين لأبي هريرة عن أبي هريرة عن النبي صلى الله عليه وسلم قال من صلى صلاة لم يقرأ فيها بأم القرآن فهي خداج غير تمام وليس في حديث إسماعيل بن أبي أويس أكثر من هذا وسألت أبا زرعة عن هذا الحديث كلا الحديثين صحيح واحتج بحديث بن أبي أويس عن أبيه عن العلاء.

Bu haqda bizga Muhammad ibn Yahyo va Ya'qub ibn Sufyon Forsiy xabar berdi. Ular shunday dedilar: «Bizga Ismoil ibn Abu Uvays otasi orqali, u esa A'la ibn Abdurrahmon orqali rivoyat qildi. Menga bu hadisni otam va Abu Sayib (Hishom ibn Zahro xizmatchisi) rivoyat qilishdi. Ular Abu Hurayra bilan suhbatdosh edilar. Ular Abu Hurayradan, u esa Payg'ambar (s.a.v.)dan rivoyat qiladi: «Kim namoz o'qib, unda Ummul-Qur'on (Fotiha surasi)ni o'qimagan bo'lsa, u namoz to'liq bo'lmagan bo'ladi». Ismoil ibn Abu Uvaysning hadisi bundan ortiq emas. Men Abu Zur'adan bu hadis haqida so'radim. U: «Ikkala hadis ham sahihdir», dedi va Ibn Abu Uvaysning otasi orqali A'ladan keltirgan hadisini hujjat sifatida qabul qildi.

Ushbu hadis Imom Termiziyning kitobida 3202-raqam (ba'zi nusxalarda 2953-raqam) bilan keltirilgan. Bu hadis Muhammad ibn Yahyo va Ya'qub ibn Sufyon orqali Ismoil ibn Abu Uvaysdan rivoyat qilingan. Ismoil bu hadisni otasi orqali Alaa ibn Abdurrahmon, u esa Abu Hurayra orqali Rasululloh (s.a.v.)dan rivoyat qiladi. Abu Zur'a Roziy kabi yirik muhaddislar bu hadisni sahih deb e'tirof etgan. (Shihobuddin Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloni., 1996:669).

Hadisda tilga olingan «Ummul-Qur'on», ya'ni «Qur'on onasi» Fotiha surasidir. Bu Qur'oni Karimdagi eng muhim suralardan bo'lib, namozning har bir rakatida o'qilishi Rasululloh (s.a.v.) tomonidan qat'iy belgilangan. Aksariyat ulamolar, ayniqsa shofeiyy va hanbaliy mazhablari olimlari ushbu suraning har bir rakatda o'qilishi farzga yaqin darajadagi vojib ekanini aytishadi.

Hadisdagi «خداج» («xidaj»)¹ so'zi arab tilida «kamomadli, nosoz, to'liq emas» degan ma'noni

¹ Hadis va fiqh istilohida «xidaj» so'zi «to'liq bo'lmagan, kamchiligi bor amal» ma'nosida ishlatiladi. Bu rukn yoki shartlari to'liq ado etilmagan ibodat bo'lib, u nuqsonli hisoblanadi. Payg'ambar (s.a.v.) shunday deganlar: «Kim Ummul-Kitobsiz (Fotiha surasisiz) namoz o'qisa, uning namozi nuqsonlidir» (ya'ni: xidojdir, nuqsonli, to'liq emas) Bu yerda so'z namozning shartlaridan biri bajarilmagani sababli mukammal bo'lmaganini bildiradi. Qarang: Ibn Manzur, Lison al-Arab. Qohira, 2010.

bildiradi. Bu yerda namozning Fotiha surasisiz o'qilishi kamomadli va noqis deb baholanmoqda. Bu esa uning qabul qilinmasligi mumkinligiga ishora qiladi (Anvarshoh Kashmiriy., 2004:443).

3209-raqamli hadisda Qibla masalasi haqidagi oyat haqida shunday rivoyat qilinadi:

حدثنا محمود بن غيلان حدثنا وكيع حدثنا أشعث السمان عن عاصم بن عبيد الله عن عبد الله بن عامر بن ربيعة عن أبيه قال كنا مع النبي في سفرة في ليلة مظلمة فلم ندر أين القبلة فصلى كل رجل منا على حاله فلما أصبحنا ذكرنا ذلك للنبي (s.a.v.) فنزلت {فأينما تولوا فثم وجه الله} قال أبو عيسى هذا حديث غريب لا نعرفه إلا من حديث أشعث السمان الربيع عن عاصم بن عبيد الله وأشعث يضعف في الحديث ذهب أكثر أهل العلم إلى هذا وقالوا إذا صلى في الغيم لغير القبلة ثم استبان له بعدما صلى أنه صلى لغير القبلة فإن صلاته جائزة وبه يقول سفيان وابن المبارك أحمد وإسحاق.

Bizga bu hadisni Mahmud ibn G'aylon rivoyat qildi, u Vaki'dan, u esa Ash'as Sammondan, u Osim ibn Ubaydullohdan, u esa Abdulloh ibn Omir ibn Robi'adan, u otasidan rivoyat qiladi (Anvarshoh Kashmiriy., 2004:245): «Biz Payg'ambar (s.a.v.) bilan bir safarda edik. Tunda juda qorong'i bo'lgani sababli qiblani aniqlay olmadik. Shunda har birimiz o'zimiz tanlagan yo'nalishda namoz o'qidik. Tong otgach, bu holatni Rasululloh(s.a.v.)ga aytdik. Shunda Alloh taolo bu oyatni nozil qildi: «Qayerga yuzlansangizlar, o'sha yerda Allohning (rozi bo'ladigan) yo'li bor» (Baqara surasi, 115-oyat)» (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf., 2019:139).

Bu hadisda mavzu musulmonlar qiblani noto'g'ri aniqlagan holatdagi namozlar hukmi haqida ketmoqda. Ya'ni, ilmiy yoki texnik imkonlar yo'qligi sababli (masalan, tun, qorong'ilik, bulut, yo'nalishni aniqlash vositasi yo'qligi) musulmon noto'g'ri yo'nalishda namoz o'qisa, u namoz qayta o'qiladimi yoki qabul qilinadimi, degan savol yuzasidan dalil bo'ladi. Bu oyat holatlarga qarab qiblani ijti-hod qilish musulmonlar uchun yengillik ekanini bildiradi. Demak, bir kishi niyati bilan qiblani aniqlashga harakat qilsa, biroq bu borada xatoga yo'l qo'ysa, uning ibodati maqbul bo'ladi.

Xulosa shuki, ijti-hod qilib qiblani topishga harakat qilish vojib sanaladi. Qiblani topa olmaslik natijasida xato yo'nalishda o'qilgan namoz qabul bo'ladi. Namozdan keyin xato aniqlansa, uni qayta o'qish shart emas. Bu Sufyon Savriy, Ibn Muborak, Imom Ahmad va Ishoq ibn Rohavayhning fikridir. Bu hukm ijti-hod asosida xato qilgan kishi uchun amal qiladi. Ataylab yoki beparvolik bilan qibladan yuz o'girish esa namozni buzadi (Akram Ziyoy Umariy., 2010:233).

2970-raqamli hadisda esa ramazon ro'zasi va saharlik vaqtlari bayon qilingan:

حدثنا أحمد بن منيع حدثنا هشيم أخبرنا حصين عن الشعبي أخبرنا عدي بن حاتم قال لما نزلت {حتى يبين لكم الخط الأبيض من الخط الأسود من الفجر} قال لي النبي صلى الله عليه وسلم إنما ذاك بيض النهار من سواد الليل قال أبو عيسى هذا حديث حسن صحيح حدثنا أحمد بن منيع حدثنا هشيم حدثنا مجالد عن الشعبي عن عدي بن حاتم عن النبي صلى الله عليه وسلم مثل ذلك.

Ahmad ibn Mani' bizga hadis rivoyat qildi. U Hishimdan, u esa Husayndan, u Sha'biydan, u Adiy ibn Hotamdan rivoyat qiladi. Adiy ibn Hotam shunday dedi: «Qur'onda «(ro'za tutish uchun) oq ip qora ipdan - tongdan ajralib turguncha» (Baqara surasi, 187-oyat) oyati nozil bo'lganda, men Rasululloh (s.a.v.) dan bu haqida so'radim. Shunda Payg'ambar (s.a.v.) menga shunday javob berdilar: «Bu oq tong (ya'ni, kun yorug'ligi)ning tun qorong'iligidan ajralishidir» (Ibn Hajar Asqaloniy., 1984:388).

Alloh taolo Qur'oni Karimda ro'zaning kirish vaqtini shunday bayon qiladi:

{حَتَّى يَبَيَّنَ لَكُمُ الْخَيْطُ الْأَبْيَضُ مِنَ الْخَيْطِ الْأَسْوَدِ مِنَ الْفَجْرِ}

«To oq ip qora ipdan, ya'ni tongning yorug'ligi tunning qorong'iligidan ajralguncha (ro'za yengillik bilan davom etadi)» (Baqara surasi, 187-oyat). Adiy ibn Hotam bu oyatni so'zma-so'z tushunib, haqiqiy oq va qora iplarni yoniga qo'yib tekshirgan. Shunda Payg'ambar (s.a.v.) uni to'g'rilab, bu majoz (majoziy ifoda) ekanini tushuntirgan: oq ip – tong yorug'ligi, qora ip esa – tun qorong'ligi.

Payg'ambar (s.a.v.) bu oyatni sharhlab, haqiqiy tong – «al-fajr as-sodik», ya'ni gorizont oq chiziq osmonning g'arbiy ufqida paydo bo'lishi ekanini aytganlar. Bu vaqtdan boshlab ro'za vaqti kirib, saharlik vaqti o'tadi. Ro'zador uchun saharlik (imsok) vaqti – «al-fajr as-sodik» chiqishi bilan tugaydi. Ushbu hadis ro'zaning kirish vaqtini oyat va sunnat asosida aniq belgilab beradi. Oyatdagi «oq ip» va «qora ip» majoziy ma'noda bo'lib, ulamolar uni kunduz va tun oralig'i ma'nosida tushunadilar. Adiy ibn Hotamning so'zma-so'z tushinishi sahobiylarning Qur'onni chuqur anglashga bo'lgan qiziqishidan dalolat beradi.

Imom Termiziy bu hadisni «hasan sahih» deb baholagan. Bu esa uning isnodi ishonchli va mazmuni qat'iy ekanini anglatadi. Bu hadis va oyat musulmonlar uchun ro'zaning kirish vaqtini aniqlashda aniq mezon bo'lib xizmat qiladi. Qur'on oyatining majoziy ma'nosi Payg'ambar (s.a.v.) tomonidan sharhlanib, noaniqliklar bartaraf etilgan (Shamsuddin Zahabiy., 1993:513). Bu Rasululloh (s.a.v.)ning bayon qilish vazifasini qanday ado etganiga yaqqol misoldir.

## MUHOKAMA

## NATIJA

Imom Termiziyning «Sunan» asaridagi tafsir boblari Qur'on oyatlarini hadis asosida sharhlashga bo'lgan ilk va muhim urinishlardan biridir. U hadislarni faqat rivoyat qilish bilangina cheklanmasdan, ulardagi tafsir, fiqh va aqida sohalariga oid masalalarning sharhlarini ham taqdim etadi. Ayniqsa, tafsir bobidan joy olgan ba'zi hadislar oyatlarning majoziy yoki kontekstual ma'nolarini anglashda katta yordam beradi.

Masalan, Fotiha surasining namozning har bir rakatida o'qilishi haqidagi hadis shundan dalolat beradiki, Qur'on tilovati namozning ajralmas qismi hisoblanadi. Hadisda «خداج» («xidaj») so'zining ishlatilishi namozda Fotiha surasini o'qimaslik uni nuqsonli qilishi mumkinligini anglatadi. Ushbu masala asrlar davomida fiqhiy munozaralarga sabab bo'lgan. Mazhablar bu borada har xil yondashuvlarga ega bo'lsa-da, hadisdagi ifoda ulamolarni Fotiha surasining o'qilishini lozim deb hisoblashga undagan.

Boshqa bir hadisda qorong'i tunda qiblani aniqlay olmaslik bilan bog'liq voqea orqali namozning qabul qilinishi masalasi muhokama qilinadi. Bu hadis ulamolar o'rtasida qiyinchilikda qilingan ijtihodga asoslangan ibodatlar haqida chuqur fikrlar uyg'otgan. Termiziy bu hadisni g'arib va zaif roviy orqali rivoyat qilgan bo'lsa-da, mazmunan ulamolarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan. Ayniqsa Sufyon Savriy, Imom Ahmad va Ibn Muborak kabi yetuk imomlar bu hadisga tayanib, ijti hod asosida qiblani noto'g'ri belgilagan holda o'qilgan namozni to'g'ri deb hisoblagan (Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Dahhak Termiziy, 2011 : 55).

Adiy ibn Hotamdan rivoyat qilingan, ro'zaning kirish vaqtiga oid hadis esa oyatdagi «oq ip» va «qora ip» iborolari qanday tushunilishi kerakligi haqida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Hadis orqali ushbu iboralar faqat ko'rinadigan iplar emas, balki majoziy ifoda sifatida tongning yorug'ligi va tun qorong'iligidan iboratligi tushuntirilgan. Bu Rasululloh (s.a.v.)ning Qur'on oyatlarini izohlashdagi beqiyos roli va sunnatning zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, «Sunan» asarining tafsirga oid qismlarida hadislarning izohi, sahobiylarning oyatlar haqidagi talqini, fiqhiy xulosalar va tafsir ilmidagi yondashuvlar bir-birini to'ldirib boradi. Bu metodologiya Imom Termiziyning nafaqat muhaddis, balki mufassir va faqih sifatidagi maqomini ko'rsatadi.

Imom Termiziyning «Sunan» asari tafsir ilmi uchun nafaqat hadis to'plami, balki Qur'oni Karim oyatlarini chuqur tushunish va izohlashda muhim manba sifatida o'z o'rnini topgan (Mirzo Kenjabek, 2010:12). Mazkur maqolada tahlil qilingan hadislar orqali Imom Termiziyning tafsir yondashuvi faqat matnlarni keltirish emas, balki ularni sharhlash, fiqhiy xulosalar chiqarish, sahobiy va tobeinlarning izohlarini berishi bilan ham ajralib turadi. Ayniqsa, Qur'on oyatlarini hadislar bilan bog'lab sharhlash metodologiyasi ushbu asarni tafsir ilmi doirasida o'rganishga loyiq manbaga aylantiradi.

Shuningdek qorong'i vaqtda qibla noto'g'ri aniqlangan holda o'qilgan namoz haqidagi hadis Imom Termiziy asarining tafsirga oid yondashuvining yana bir muhim jihatini ko'rsatadi. Bu hadis asosida ulamolar ijti hod asosida qilingan amallar sahih bo'lishi mumkinligini, niyat va sharoitlarni e'tiborga olish zarurligini asoslab berishgan. Aynan mana shu hadis asosida fiqhiy prinsiplar zarurat, ijti hod, va og'irlikka yengillik bilan yondashish kabi qoidalar ishlab chiqilgan. Bu esa, tafsir faqat matnni sharhlash emas, balki hayotga tatbiq etish amaliyoti ham ekanini ko'rsatadi.

Adiy ibn Hotamning ro'zaning kirish vaqti haqidagi rivoyati esa Qur'on oyatlarini so'zmaso'z emas, balki majoziy mazmunini tushunish ham zarurligini ko'rsatadi. Bu hadis orqali sunnatning Qur'onni bayon qilishdagi roli yana bir bor tasdiqlanadi. Rasululloh (s.a.v.)ning izohi oyatning haqiqiy maqsadini ochib bergani, tafsir ilmining faqat tafsiriy asarlarga emas, hadis to'plamlariga ham asoslanishi kerakligini ko'rsatadi.

Imom Termiziy asari bu jihatdan tafsir va fiqh o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Uning asari hadis to'plami sifatida tuzilgan bo'lsa-da, unda tafsirga bag'ishlangan alohida bob ajratilgani, undagi hadislar sharhlari bilan keltirilgani ushbu manbani Imom Buxoriy yoki Imom Muslimning hadis to'plamlaridan ajratib turadigan o'ziga xos jihat hisoblanadi. Asar, shuningdek, Qur'onni hayotiy voqealar bilan uyg'un tarzda tushuntirishga uringan ilk ilmiy yondashuvlardan biri sifatida baholanadi.

Imom Termiziyning asari tafsir, fiqh va hadis ilmlariga oid bo'lib, u nafaqat rivoyatlarni keltirish, balki ularni sharhlash, tartibga solish va zamonaviy masalalarga asos bo'la oladigan ilmiy yondashuvga



ega. Bu asar islom manbashunosligida o'zining ilmiy va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Bugungi kunda ham ushbu asarni tafsirshunoslik va fiqhiy tadqiqotlarda asosiy manbalardan biri sifatida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

### XULOSA

Ushbu maqolada Imom Termiziyning «Sunan» asarida keltirilgan tafsir boblari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, Imom Termiziy Qur'oni Karim oyatlarini sharhlashda faqat hadislarni jamlash bilangina cheklanib qolmagan, balki ularni fiqh, aqida va tafsir ilmlari nuqtai nazaridan izohlashga alohida e'tibor qaratgan. Bu esa uning hadis ilmidagi maqomi bilan bir qatorda, tafsir va fiqh sohalarida ham yetuk alloma bo'lganini ko'rsatadi.

Maqolada ko'rib chiqilgan hadislar, xususan, Fotiha surasining namozdagi o'rni, qiblani aniqlashda ijthod masalasi hamda ro'za vaqtini belgilashga oid rivoyatlar Qur'on oyatlarini to'g'ri anglashda sunnatning hal qiluvchi rolini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, «خداچ» («xidaj») kabi terminlarning hadis matnida qo'llanilishi fiqhiy hukmlarning nozik jihatlarini ochib berib, ulamolar o'rtasidagi mazhabiy qarashlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

Shuningdek, Imom Termiziyning ayrim zaif yoki g'arib sanadli hadislarni keltirishi ularning mazmunan qabul qilinishi, sahobiy va tobeinlar amaliyoti bilan qo'llab-quvvatlanishi bilan izohlanadi. Bu holat hadisni baholashda faqat sanad emas, balki matn, mazmun va umumiy shar'iy qoidalarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Natijada, «Sunan» asari tafsir ilmi doirasida ijthod, yengillik va zarurat kabi fiqhiy prinsiplarning shakllanishiga xizmat qilgan muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda Imom Termiziyning «Sunan» asari tafsir, fiqh va hadis ilmlarining uzviy bog'liqligini aks ettiruvchi nodir ilmiy manba hisoblanadi. Undagi tafsir bobi Qur'on oyatlarini hayotiy voqealar va amaliy masalalar bilan uyg'un holda sharhlashga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ham ushbu asar tafsirshunoslik, fiqhiy tadqiqotlar va hadis ilmi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishda muhim manba bo'lib qolmoqda.

### MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anvarshoh Kashmiriy. (2004). Arfu sh-shaziy sharhi Sunani Termiziy (Vol. 1). Darul Turas al-Arabi.
2. Shamsiddin Muhammad Zahabiy. (1998). Kitob Tazkirat al-huffoz. Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
3. Shihobuddin Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloni. (1996). Tahzib at-tahzib (Vol. 3). Muassasat ar-Risola.
4. Iso Muhammad at-Termiziy. (2010). Sunani Termiziy (Mirzo Kenjabek, Trans. & annot.). Sharq.
5. Ibn Hajar al-Asqaloni. (1984). Tahzib at-tahzib (Vol. 9). Dar al-Fikr.
6. Umariy, Akram Ziy. (n.d.). Turas at-Termiziy al-ilmiy. Maktaba ad-Dar bil-Madinati al-Munavvara.
7. Zahabiy, Shamsuddin. (1993). Siyaru a'lam an-nubala (Vol. 18). Muassasat ar-Risola.
8. Termiziy, Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Dahhak. (n.d.). Jomi' at-Termiziy (Vol. 1).
9. Ibn al-Arabi al-Moliki, Abu Bakr Muhammad ibn Abdulloh. (2011). Aridat al-ahvaziy sharhi Sahih at-Termiziy (J. Marashliy, Ed., Vols. 1–13). Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
10. Ahmad Abdulkarim. (1409 AH). Sharh Jomi' Sunan (Vol. 1). Vard al-Asima.
11. Abu Hotim Muhammad ibn Hibban al-Bustiy. (2012). Al-Musnad as-sahih 'ala at-taqasim va al-anva' (M. A. Sonmez & H. Aydemir, Eds., Vol. 3). Dar Ibn Hazm. (Original work published 1433 AH)
12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2019). Tafsiri Hilol. Hilol Nashriyoti.

### REFERENCES

1. Kashmiri, A. S. (2004). 'Arf al-Shadhi: Commentary on Sunan al-Tirmidhi (Vol. 1). Dar al-Turath al-'Arabi.
2. Al-Dhahabi, S. al-D. M. (1998). Tadhkirat al-Huffaz. Dar al-Kutub al-'Ilmiyyah.
3. Al-'Asqalani, S. al-D. A. al-F. A. ibn 'Ali ibn H. (1996). Tahdhib al-Tahdhib (Vol. 3). Mu'assasat al-Risalah.
4. Al-Tirmidhi, M. ibn 'I. (2010). Sunan al-Tirmidhi (M. Kenjabek, Trans., commentator, & annotator). Sharq Publishing House.
5. Al-'Asqalani, I. H. (1984). Tahdhib al-Tahdhib (Vol. 9). Dar al-Fikr.
6. Al-'Umari, A. Z. (n.d.). Turath al-Tirmidhi al-'Ilmi. Al-Maktabah al-Dar.
7. Al-Dhahabi, S. al-D. M. (1993). Siyar A'lam al-Nubala' (Vol. 18). Mu'assasat al-Risalah.
8. Al-'Umari, A. Z. (n.d.). Turath al-Tirmidhi al-'Ilmi. Al-Maktabah al-Dar.
9. Al-Tirmidhi, M. ibn 'I. ibn S. ibn M. ibn al-D. (n.d.). Sunan al-Tirmidhi (Vol. 1).

10. Ibn al-‘Arabi al-Maliki, A. B. M. ibn ‘A. (2011). ‘Aridat al-Ahwadhi: Commentary on Sahih al-Tirmidhi (J. Marashli, Ed.; Vol. 13). Dar al-Kutub al-‘Ilmiyyah.
11. ‘Abd al-Karim, A. (1409 AH). Critical edition of the commentary on Jami‘ al-Sunan by Abu al-Fath Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad al-Ya‘muri al-Andalusi (Vol. 1). Ward al-‘Asimah.
12. Al-Busti, A. H. M. ibn H. (2012). Al-Musnad al-Sahih ‘ala al-Ta‘qasim wa al-Anwa‘ (M. A. Sonmez & H. Aydemir, Eds.; Vol. 3). Dar Ibn Hazm.
13. Muhammad Yusuf, S. M. S. (2019). Tafsir Hilal. Hilal Publishing House.

